

BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QITILADIGAN DARSLIKlardagi TAYANCH TUSHUNCHALARNING ZAMONAVIY TALQINI – O'QUVCHI FIKRLASH FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING OMILI SIFATIDA

Mamadaliyeva Nilufar Bahodirovna

Andijon davlat Pedagogika instituti

Maktabgacha ta'lim kafedrası katta o'qituvchisi

E-mail: mamadaliyevanilufar@mail.ru 90-146-39-77

Annotatsiya: ushbu maqolada o'quvchilarda fikrlash faoliyatining barcha rivojlantirishda tayanch tushunchalarni o'qitish orqali og'zaki nutqqa tayanishni kuchaytirish, mantiqiy fikrlashning asosiy shakllari: tushuncha, mulohaza, mantiqiy xulosa kabilar batafsil ko'rib chiqilgan, vositalar asosidagi bilish, o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini shakllantirishda darslikning metodik tizimining o'rni, mantiqiy fikrlash o'qituvchi va o'quvchi faoliyatining natijasi didaktik jarayonning maqsadi, o'quv materialining mazmuni, o'qitish shakl, metod va vositalarining to'g'ri belgilanganligiga bog'liqligi, boshlang'ich sinf darslarida o'quvchilarning mantiqiy fikrlashlarini rivojlantirish maqsad va mazmun, shakl va vosita hamda usul va texnologiyalarning birgalikda amalga oshirilishi maqsadga muvofiqligi haqida fikrlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich, maktab, o'quvchi, o'qituvchi, o'qitish, mantiqiy fikrlash, bilish, og'zaki nutq, vosita, bilim, dars, darslik.

СОВРЕМЕННАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ОСНОВНЫХ ПОНЯТИЙ В УЧЕБНИКАХ, ОБУЧАЕМЫХ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ - КАК ФАКТОР РАЗВИТИЯ МЫСЛИТЕЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ УЧАЩИХСЯ

Аннотация: в данной статье подробно рассматриваются основные формы логического мышления: понимание, рассуждение, логический вывод и др. роль

методической системы учебника в формировании мышления, логического мышления, результата деятельности учителя и обучающийся, цель дидактического процесса, содержание учебного материала, зависимость от правильного определения формы, методов и средств обучения, первичные. Существуют мнения о соответствии цели и содержания, формы и средств, методы и технологии развития логического мышления учащихся на уроках.

Ключевые слова: начальная школа, ученик, учитель, обучение, логическое мышление, знания, устная речь, инструмент, знания, урок, учебник.

MODERN INTERPRETATION OF BASIC CONCEPTS IN TEXTBOOKS TAUGHT IN PRIMARY CLASSES - AS A FACTOR OF DEVELOPMENT OF STUDENT'S THINKING ACTIVITY

Abstract: this article examines in detail the main forms of logical thinking: understanding, reasoning, logical conclusion, etc. the role of the methodological system of the textbook in the formation of thinking, logical thinking is the result of the activity of the teacher and the student, the purpose of the didactic process, the content of the educational material, the dependence on the correct definition of the form, methods and tools of teaching, primary There are opinions about the appropriateness of the purpose and content, form and means, methods and technologies of developing students' logical thinking in the classroom lessons.

Key words: elementary, school, student, teacher, teaching, logical thinking, knowledge, oral speech, tool, knowledge, lesson, textbook.

KIRISH.

Mamlakatimizda boshlang'ich maktab ta'limi milliy tizimini yaratishga katta e'tibor berilmoqda. Boshlang'ich ta'lim tizimini yanada rivojlantirish, bu boradagi yangi tashabbuslarni ilgari surish va qo'llab-quvvatlash, ta'lim sifatini oshirishga ta'sir

ko'rsatishi mumkin bo'lgan muammolarni hal etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 3 fevraldagi "Xalq ta'limi tizimini isloh qilish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi F-22-son [farmoyishi](#) asosida Xalq ta'limi tizimini isloh qilish bo'yicha Milliy kengash tuziladi.

O'zbekistonda milliy ta'lim tizimini yaratish, darslik va o'quv qo'llanmalarini zamon talablari asosida takomillashtirish, ularning yangi avlodini yaratish, ilg'or xorijiy tajriba asosida ta'lim dasturlarini optimallashtirish, boshlang'ich sinf o'quvchilarning og'zaki nutq va fikrlash faoliyatini rivojlantirishning samarali pedagogik shakl va metodlarini yaratish vazifalar ustuvor etib belgilandi. Bu esa, tayanch tushunchalarni loyihalab o'qitish orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarning og'zaki nutq va fikrlash faoliyatini rivojlantirish zarurligini taqozo etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki va yozma nutqini shakllantirish va rivojlantirish masalalari bilan mamlakatimizda M.K.Aminova, B.R. Adizov, M. E. Axmadjonova, J.Ikromova, Ye.Yangabayeva, D. Raximbekov, R. G. Safarova M.Tojiyev, M.E.Jumayev, Zayniddinova, E.M.Xudaynazarov, R.S. Xurramovlar. MDHdan I.A.Gibsh, B.V. Gnedenko, S.I. Shvarsburd, A.M. Pishkalo, K.I. Neshkov, M.V. Pototskiy, S.B. Suvorova, I. Krilova, M.F. Petrova, V.I. Romanova, kabi metodist va olimlarning e'tiborini jalb qilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

O'quvchilarda fikrlash faoliyatining barcha turlarini rivojlantirishda tayanch tushunchalarni o'qitish orqali og'zaki nutqqa tayanishni kuchaytirish boshlang'ich sinf bo'yicha tizimli va maqsadga yo'naltirilgan ishlarni yuritishni taqozo etadi. Mazkur muhim vazifani amalga oshirish o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini oshirishga va shuningdek ularning mantiqiy fikrlashlarini rivojlantirishga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Masalan, inson o'zini o'rab turuvchi olam haqida ko'p narsalarni biladi. Voqeliklarning barchasini idrok eta olmasada, u uzoqdagi yulduzlarning kimyoviy

tarkibini yaxshi biladi, mayda zarrachalar dunyosi bilan ham tanish, oliy asab faoliyatining qonunlarini tushunib yetgan, rentgen nurlari, ultratovushlar mavjudligini va cheksiz fan qonuniyatlarini tushunib yetadi. Inson o'z ongida faqatgina predmetlar va voqeliklarni emas, balki ular o'rtasidagi qonuniy aloqalarni aks ettira oladi.

Insoniyatning tevarak olamni analizatorlar yordamida idrok etish imkoniyati juda cheklangan. Agar insonning ongi ko'rish, tinglash, sezish va boshqa ayrim analizatorlar beruvchi ko'rsatkichlar bilan cheklanib qolganda edi, u tevarak-olam haqida juda oz bilgan bo'lardi. Olamni chuqur va keng tarzda idrok etish, bilish insonning mantiqiy fikrlashlarini rivojlantiradi.

Rene Dekartning fikriga ko'ra mantiqiy fikrlash uchta daraja: 1) intuitsiya (ichki hissiyot); 2) idrok (fikrlash); 3) aqldan iborat bo'luvchi tuzilmaga ega. Bu nuqtai nazarda intuitsiya, ya'ni ichki hissiyot deb ayrim mavhum obyektlarning o'zi kabi boshqa tizimlar bilan aloqalariga nisbatini bildirilmagan bilimi tushuniladi. Idrok tushunchasi ostida mavhum obyektlar konkret tizimlarining o'zi kabi boshqa tizimlar va mavhum obyektlar universumi bilan aloqalariga nisbati bildirilmagan bilimi tushuniladi. Aql esa mavhum obyektlar konkret tizimlarining o'zi kabi boshqa tizimlar va mavhum obyektlar universumi bilan aloqalariga nisbati hisobga olingan bilimdir [1; 268 b.].

Faqatgina ichki hissiyot bilan cheklanib qolgan mantiqiy fikrlash irratsional fikrlashdir. Ichki hissiyot idrok bilan to'ldirilgan mantiqiy fikrlash mulohazaviy fikrlash deb ataladi, u obyektlar yoki obyektlar tizimining konkret predmetli faoliyati jarayonida shakllanadi.

Ratsional fikrlash deb ichki hissiyot faqatgina idrok bilangina emas, balki aql bilan ham to'ldirilgan fikrlashga aytiladi. Shuning uchun u ko'proq darajada barkamol hisoblanadi. Mantiqiy fikrlash mazkur turlari o'rtasidagi aloqani I.Kant ham alohida ko'rsatib o'tgan: "Bizning bilimimiz kechinmalardan boshlanadi, keyin u idrokka aylanadi va bizda mushohadaning materialiga ishlov berish va uning oliy tafakkur birligiga keltirishda eng oliy maqomda turuvchi aqlda o'z yakuniga yetadi" [2; 154-174 b.].

XIX asr o'rtalarida Dj.Bul tomonidan mantiq algebrasi ishlab chiqilganligi va uning asosida G.Frege iboralarning aksiomatik hisobini qurganligi va zamonaviy mantiqiy semantika asoslarini yaratganligi mantiqiy fikrlash tushunchasiga nisbatan yondoshuvlarni shakllantirishning muhim bosqichi bo'lib hizmat qildi.

Pedagog-metodistlarning tadqiqotlari bilan bir qatorda psixologlarning tadqiqotlari ham mantiqiy fikrlash tushunchasining mazmunini boyitdi.

A.M.Zaynitdinova tomonidan mantiqiy fikrlashga quyidagi ta'rifni keltirib o'tgan. Mantiqiy fikrlash – fikrlashning oliy pog'onalaridan biri bo'lib, izchillik, ketma-ketlik asosida fikrlarning bog'lanishini bildiradi va shaxs ijodiy faolligining mukim qirrasini o'zida aks ettiradi. O'z navbatida shaxsda mazkur sifatlarni tarkib toptirish demokratik va insonparvar jamiyatning faol a'zosini shakllantirishga imkon beradi [3; 105 b.].

TAHLILLAR VA NATIJALAR.

Faylasuflar tadqiqotlarida mantiqiy fikrlash masalasiga to'xtalib o'tilgan. XIX asrning ikkinchi yarmida psixik voqeliklarni biroz sodda, oddiy atomlarga o'tkazish va ko'proq darajada murakkab tuzilmalarni yaratishni boshqaruvchi qonunlarni aniqlashtirishga imkon beruvchi eksperimental ma'lumotlarga asoslangan eksperimental psixologiyani rivojlantiruvchi omillar paydo bo'ldi. Aynan o'sha davrda mantiq fani tomonidan mantiqiy fikrlashning asosiy shakllari: tushuncha, mulohaza, mantiqiy xulosa kabilar batafsil ko'rib chiqilgan. Tushuncha "umumlashtirishning oliy darajasi" sifatida, mulohaza "ikki tushuncha (subyekt va predikat) o'rtasidagi aloqa" sifatida, mantiqiy xulosa esa "xulosa mantig'i" qoidalari yoki bir nechta mulohazaning natijasi chiqarilishi bilan tavsiflanishi" sifatida talqin etilgan [4; 90 b.].

Ma'lumki shift oq ekanligi inson tomonidan bevosita analizatorlar yordamida qabul qilinadi. Masalan, hech kim to'g'ri burchakli uchburchakka qanchalik diqqat bilan qarasa ham, qanchalik o'tkir nigohga ega bo'lsa ham to'g'ri burchakli uchburchak gipotenuzasining kvadrati uning katetlari yig'indisiga teng ekanligini bevosita ko'ra olmaydi. Bu kabi bilish bizning analizatorlarimizning bevosita

ko'rsatkichi bo'la olmaydi, balki ko'pchilik ta'kidlaganidek, vositalar asosidagi bilish hisoblanadi.

Vositalar asosidagi bilish nima degan savol tug'iladi? Tasavvur qilingki, xona ichida o'tirgan kishi tashqarida harorat qanday ekanligini bilmoqchi. Buning uchun turli imkoniyatlar bor: bu haroratni o'zining teri analizatori orqali ko'chaga chiqqan holda sezish yoki derazaga tashqari tomondan mahkamlab qo'yilgan termometrqa qarash orqali. Termometrqa qarash orqali haroratni bilib olish vosita orqali bilish hisoblanadi. Nimanidir qabul qilgani holda inson boshqa narsa haqida fikrlaydi. Ammo, bu imkoniyatni bizga kim beradi? Nima uchun odam termometrqa qaragani holda o'zi his qilmayotgan haroratni bilib oladi? Tabiiyki, u simob xajmining atrof-muhit harorati bilan aloqasini bilganligi uchun bilib oladi.

Xuddi shu tarzda odam yulduz moddasini laboratoriya tahliliga solmagan bo'lsa ham, (chunki buning ilojisi yo'q) yulduzlarning kimyoviy tarkibi haqida ham vositalar holda, ya'ni bevosita uzoqdagi yulduz nurining tarqalib ketishi orqali olingan ko'zga ko'rinuvchi spektrni o'rgangan holda bilib oladi. Bu holat odam moddaning kimyoviy tarkibi va uning tomonidan tarqatilgan nurning spektri o'rtasidagi aloqani ochishga erishgandan keyingina mumkin bo'lgan.

Demak, mantiqiy fikrlash birinchi navbatda vositalar asosidagi bilim hisoblanadi. Inson vositalangan bilish quyidagi vaziyatlarda foydalanishga extiyoj sezadi:

analizatorlar takomillashmaganligi (masalan, analizatorlar ultra tovushni qabul qilmaganda) yoki tegishli analizatorlar mavjud bo'lmaganligi (masalan, rentgen nurlarini tutib olish analizatorlari yo'q bo'lishi)tufayli bevosita bilim olish mumkin bo'lmagan xolatlarda;

bevosita bilish prinsipial jihatdan mumkin, ammo ayrim konkret sharoitlarda istisnolik kasb etgan xollarda (masalan, tarix, paleontologiya, arxeologiya kabi fanlarni o'qib o'rganishda);

bevosita bilib olish mumkin, ammo noratsional ya'ni maqsadga muvofiq bo'lmaganda.

Masalan, xar qanday balandlikdagi daraxtning uzunligini ya'ni, bo'yini vositalangan xolda, ya'ni quyoshli kunda yerga yog'ochni sanchish va vaqtni belgilash orqali yog'ochning soyasi daraxtning bo'yiga teng bo'lgan vaqtda bilib olish mumkin. Shu vaqtda daraxtning soyasi ham uning bo'yiga teng bo'ladi.

Yuqorida aytib o'tilganidek, vositalangan bilish predmetlar va voqeliklar o'rtasidagi obyektiv munosabatlar va qonuniy aloqalar mavjudligi hamda inson tomonidan bu aloqalarning anglab yetilishi, tushunilishi, bilib olinishiga asoslanadi. Ularni aniqlashtirish uchun inson mantiqiy fikrlash jarayonlariga kirishadi – dalillarni qiyoslaydi, solishtiradi, ularni tahlil qiladi, xulosalar chiqaradi.

XULOSALAR.

Xulosa qilib aytganda, bizning fikrimizcha, mantiqiy fikrlash – tevarak atrofning predmet va voqeliklari o'rtasidagi munosabatlar va qonuniy aloqalarni bilib olishdir ya'ni, ularni aks etishidir. U moddiy olam qonuniyatlarini, tabiat va jamoatchilik-tarixiy xayotdagi sabab-oqibat aloqalarni, inson ruhiyatining qonuniyatlarini tushunish imkoninini beradi.

O'quvchilarning mantiqiy fikrlashini shakllantirishda darslikning metodik tizimining o'rni beqiyos bo'lib, yaxlit sistema sifatida ta'limning maqsadi, o'qituvchi faoliyati, o'quvchi faoliyati, ta'lim natijasi, ta'lim mazmuni, shakl, metod, vosita, texnologiya va loyihalarni o'z ichiga qamrab oladi.

Yana boshqacha qilib aytib mantiqiy fikrlashni real voqelikning umumiy bilishi, predmet va voqeliklarning umumiy va mohiyatli xususiyatlarini bilish jarayoni deb atash ham mumkin. Masalan, mantiqiy fikrlash yordamida inson metallarning umumiy va mohiyatli xossalarini, gazlarning suyuqliklar umumiy xossalaridan farqli bo'lgan umumiy xossalarini, sifat so'z turkumining umumiy belgilaridan farqli bo'lgan fe'l so'z turkumi belgilarini va boshqalarni bilib oladi.

Mantiqiy fikrlash o'qituvchi va o'quvchi faoliyatining natijasi didaktik jarayonning maqsadi, o'quv materialining mazmuni, o'qitish shakl, metod va vositalarining to'g'ri belgilanganligiga bog'liq bo'lib, mantiqiy fikrlash o'quvchilarning og'zaki nutiq madaniyatini rivojlantirilishi muvaffaqiyatli amalga oshishi uchun faol ta'sir etuvchi omillarning mavjud bo'lishi talab etiladi.

Boshlang'ich sinflarda o'quv fanini o'qitish jarayonida o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish mezonlari quyidagi ko'rinishda namoyon bo'ladi:

tafakkurning mustaqilligi;

o'quv materialini o'zlashtirishning tezligi va mustahkamligi;

standart bo'lmagan vazifalarni hal qilishda zexn tezligi;

fikrlashdagi tanqidiylik[5, 2 b.].

Boshlang'ich sinf darslarida o'quvchilarning mantiqiy fikrlashlarini rivojlantirish maqsad va mazmun, shakl va vosita hamda usul va texnologiyalarning birgalikda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq.

Demak, yuqorida ta'kidlanganlardan kelib chiqqan holda to'liq va batafsil ta'rifni shakllantirishimiz mumkin. **Mantiqiy fikrlash** – inson tomonidan ko'rib, eshitib, bilib, his qilib va anglanib turgan borliq, voqelik yoki taassurotlarning boshqalar uchun ham tushunarli tarzda tafakkur etilishini anglatuvchi tushunchadir. Yoki, **mantiqiy fikrlash** – atrof-muhitni ya'ni, tevarak atrofni, olamni vositalangan va umumlashtirilgan tarzda bilish jarayoni, faqat insonga xos bo'lgan, ruxiy, murakkab bilish jarayoni hisoblanadi. Mantiqiy fikr yuritish barcha sog'lom insonlarga xosdir. Insonning bilish faoliyati uchun mantiqiy fikrlash universal xarakterga ega. Fikrlash ko'p qirrali, murakkab, shu bilan birga, bir butunni tashkil etadigan aqliy jarayondir. Mantiq deganda insonlarning kundalik faoliyatida, munosabatlarida, tartibli, aniq, asosli, ya'ni mantiqiy o'ylay olishi tushuniladi. Barcha insonlarning fikrlash qonuniyatlari bir xil bo'lganidan turli tillardagi so'zlarning ma'nosini tushuna olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Logicheskiy slovar: Defort / pod. Red. A.A. Ivina, V.N. Pereverzeva, V.V. Petrova.-M.: Мысл, 1994.- 268s.]. (Mantiqiy lug'at: Defort/ A.A.Ivin, V.N. Pereverzev, V.V. Petrov tahriri ostida. Moskva: Мысл, 1994. – 268 bet

2. Kant Immaniul. Sochineniya.: - M.: Nauka, 1969.-T.3.-s.154-174.

3.Zaynitdinova M.A. Matematika darslarida ukuvchilarning mantiqiy fikrlash kobiliyatlarini rivojlantirishga innovatsion yondashuv (<https://doi.Org/10.53885/edinres.2022.5.5.035>). 105 b.

4.Psixologiya. Slovar. – M.: Politizdat, 1990. - 494s.

5.Zaynitdinova M.A. Matematika darslarida ukuvchilarning mantiqiy fikrlash kobiliyatlarini rivojlantirishga innovatsion yondashuv (<https://doi.Org/10.53885/edinres.2022.5.5.035>). 2 b.